



Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [30660-1540 \(online\)](https://doi.org/10.30660/1540)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 9

Published: 12.12.2024 <https://universaljurnal.uz>

International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF



Tuxtaboyeva Feruza Muratovna.,
Mukumjonova Mashxura Muxidin qizi.,
Xamdamova Ruxshona Muzaffarjon qizi.,
Rahmonova Zulxumor Rustamjon qizi
Andijon davlat universiteti
Uzbekistan

feruzatobotaboyeva1971@gmail.com

mukumjonovamashhura@gmail.com

hamdamovashodona9@gmail.com

zulhumorrahmonova5@gmail.com

XAYVON XUJAYRALARI GEN MUXANDISLIGI

Abstract: This article provides information about technologies aimed at introducing new properties or improving existing properties by modifying the genetic material of animal cells. This area is of great importance in modern biotechnology and medicine. These technologies create the opportunity to produce pharmaceutical products, study human diseases, create genetic therapies, and obtain high-quality animal breeds for agricultural purposes. Genetic engineering of animal cells serves as one of the important directions of biotechnological development in the future.

Keywords: Modification, transformation, gene therapy, microinjection.

Annotatsiya: Ushbu maqolada hayvon hujayralarining genetik materialini o'zgartirish orqali yangi xususiyatlar kiritish yoki mavjud xususiyatlarni yaxshilashga qaratilgan texnologiyalar haqida ma'lumot

berilgan. Ushbu soha zamonaviy biotexnologiya va tibbiyotda katta ahamiyatga ega. Bu texnologiyalar yordamida farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish, inson kasalliklarini o'rganish, genetik terapiyalar yaratish va qishloq xo'jaligi maqsadlarida yuqori sifatli hayvon zotlarini olish imkoniyati yaratiladi. Hayvon hujayralari gen muhandisligi kelajakda biotexnologik rivojlanishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Modifikatsiya, transformatsiya, gen terapiyasi, mikroineksiya.

Аннотация: В данной статье представлена информация о технологиях, направленных на введение новых характеристик или улучшение существующих характеристик путем изменения генетического материала клеток животных. Это направление имеет большое значение в современной биотехнологии и медицине. С помощью этих технологий можно производить фармацевтическую продукцию, изучать болезни человека, создавать генетическую терапию, получать высококачественные породы животных для сельскохозяйственных целей. Генная инженерия клеток животных послужит одним из важных направлений развития биотехнологий в будущем.

Ключевые слова: Модификация, трансформация, генная терапия, микроинъекция.

Language: Uzbek

Citation: Tukhtaboyeva , F., Mukumjonova , M., Hamdamova , R., & Rahmonova , Z. (2024). GENETIC ENGINEERING OF ANIMAL CELLS. Universal International Scientific Journal, 1(9), 112–120. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1227>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14472368>

Kirish: Hayvon gen muhandisligi zamonaviy biotexnologiyaning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, genetik modifikatsiya orqali yangi biologik xususiyatlarni kiritish yoki mavjudlarini o'zgartirish imkonini beradi. Ushbu texnologiya tibbiyot, qishloq xo'jaligi va ekologiya sohalarida inqilobiy natijalarni keltirib chiqarmoqda. Masalan, genetik jihatdan modifikatsiyalangan hayvonlar tibbiy tadqiqotlar uchun model sifatida ishlatiladi

yoki ular orqali qimmatbaho biologik mahsulotlar olinadi.

Asosiy qism:

1. Hayvon gen muhandisligining ilmiy asoslari: hayvonlarning genomini tahrirlashda CRISPR-Cas9 kabi texnologiyalar keng qo'llaniladi. Bu usul orqali kerakli genlarni kiritish, o'chirish yoki o'zgartirish mumkin. Masalan, genetik modifikatsiya qilingan sichqonlar inson kasalliklarini o'rganishda keng qo'llanilmoqda.

2. Amaliy tatbiqlar:qishloq xo'jaligida: gen muhandisligi yordamida mahsuldorligi yuqori, kasalliklarga chidamli hayvonlar yaratilmoqda. Masalan, virusga chidamli cho'chqalar yoki tez o'suvchi baliqlar.

Hayvonlardan insulin, vaksina va boshqa biopreparatlarni ishlab chiqarishda foydalaniladi. Shuningdek, organlarni odamlar uchun transplantatsiyaga moslashtirishda genetik modifikatsiya muhim rol o'ynaydi.

Yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan hayvon turlarini saqlash yoki ekologik muvozanatni tiklashda gen muhandisligi qo'llanilishi mumkin.

3. Hayvon gen muhandisligi bilan bog'liq bir qator muammolar mavjud, chunki bu o'zgarishlar har doim ham o'z samarasini bermaydi genetik o'zgarishlar hayvonlar hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

1. Xayvonlar gen muhandisligi. Gen injenerligi qisqacha aytganda, genlar ustida turli manipulyatsiyalar o'tkazish, ularni to'la o'rganish asosida funksional qisimlariga ega bo'lish, kerakli joyidan kesish, kerakmas qismini olib tashlab, kerak bo'lgan qisimlarini boshqa genlardan yoki sintez yo'li bilan olib ulash va shu usulda tayyorlangan duragay yoki rekombinant genni muvofiq organizmga kiritib zarur turlarni yoki preparatlarni sintez qilish va hokazo texnologiyani yig'indisidir.

Viruslar bilan prokariot hujayralar orasidagi materiallarning ko'chirilishini, tabiiy sharoitda bakterialarda o'tadigan rekombinatsiya mexanizmlarini o'rganish, plazmidalar va mo'tadil faglarning hujayradagi hayotini tushunish genlar ustida turli manipulyatsiyalar o'tkazish imkonini beradi. Olimlar qo'lida DNK ning kerakli bir qismini bakteriya hujayrasiga ko'chirib o'tqazadigan sistema-plazmidalar ham bor. Bunday transmissiv ko'chirib o'tkazuvchi halqli molekulalar-plazmidalar va mo'tadil viruslar vektor deb ataladi. Shunday ekan, endi bakteriyalarni kul'turada (ular o'sadigan muhitda) insonlar uchun kerakli oqsillarni, fermentlarni sintezlashga majbur qilib bo'lmasmikan?

Bu g'oyalarni amalda yuzaga chiqishi gen injenerligi yoki genetik injenerlik deb atalgan va katta istiqbolga ega bo'lgan yangi sohani dunyoga keltirdi.

2. Genetik modifikatsiya qilishning usullari. Xayvonlarni genetik modifikatsiya qilishning ikkita usuli mavjud: somatik xujayralarni (tana xujayralarini) va jinsiy xujayralarni o'zgartirish usullari bilan. Birinchi usul modifikatsiya qilingan individual organizmlar xujayrasini o'zgarishga, ikkinchi usul esa yangi nasldan naslga beriluvchi xususiyatlarni paydo

bo'lishga olib keladi. Somatik xujayralarni modifikatsiyalash to'rtta bosqichdan iborat:

1. Organizmdan xujayralarni olish.
2. Olingan xujayrasining kulturasini olish.
3. Genni vektorga ulash va xujayraga transformatsiya qilish.
4. Transformatsiyalangan xujayrani organizmga kiritish.

Bu xayvonlar gen terapiyasining asosiy sxemasidir.

Jinsiy xujayralarni o'zgartirish organizmga yangi nasldan naslga beriladigan irsiy belgilarni beradi. O'zining avlodlariga yangi irsiy belgilarni beruvchi organizm transgenli organizm deyiladi, yangi organizmga kiritilgan gen transgen deyiladi..

3. Gen muxandisligi usullari yordamida yaratilgan transgen xayvonlar. Transgen xayvonlar olish jarayoni transgen bakteriya olishga nisbatan ancha murakkabdir. Ammo bugungi kunga kelib turli transgen xayvonlar yaratilgan. Bularga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin:

- turli maqsadlar uchun modifikatsiyalangan sichqonlar. Ulardan ba'zilariga insonlar kasalliklarining inson bo'lmagan modelini olish uchun insonlarning genlari kiritilgan. Masalan, gen injenerligi usullari bilan o'zgartirilgan sichqonlar poliomeilit virusi uchun

insonlarning xujayra retseptori genini tutadi. Ularning normal sichqonlardan farqi ular mazkur virus bilan zararlanishi mumkin, xatto bu sichqonlarda bu kasallikning belgilari rivojlanishi mumkin. Yana insonlarning immun tizimiga ega bo'lgan sichqonlarni ham misol sifatida ko'rishimiz mumkin, bu sichqonlar kasal odamlarsiz ularning kasalliklarini tadqiq etish imkonini beradi.

- gen muxandisligi usullari yordamida geni o'zgartirilgan tovuqlar olingan bo'lib, ular tarkibida insonlar uchun foydali bo'lgan oqsillar tutuvchi tuxum qo'yadi;

- genetik modifikatsiyalangan qo'ylar 1-antitripsin alfa genini tutuvchi sut beradi. Bu oqsilning ikkita funksiyasi mavjud bo'lmaydigan geni irsiy berilgan odamlar 1-antitripsin alfa yetishmovchiligi deb nomlanadigan kasalliklar bilan og'riydi. Ular o'pka va jigarni ishdan chiqaradi. ;

- tadqiqotchi Ontario «Envirocho'chqa» yaratib, uning go'ngi 60% kam fosfor tutadi;

- genetik muxandisligi usullari yordamida olingan echkilar inson insulini tutuvchi sut beradi, yana boshqalari sutida o'rgimchaklarning pautina oqsillarini tutadi.

Hayvonlarda gen injenerligini qo'llash inson uchun kerakli (foydali) genlarni genomga joylashning bajarilishiga bog'liq. Mana shunday klonlashtirilgan genni hujayra yadrosiga joylab qo'yishning ikki usuli:

pronukleusga genni purkash va virus transfeksiyasi usullari mavjud.

Birinchi usul bilan kerakli gen oldin DNK molekulasiga ulanib so'ngra pronukleusga joylab qo'yiladi. Shunday yo'l bilan Vigler va boshqalar herpes virusdan (NSV-1) olingan va DNK molekulasiga ulangan timidinkinaza fermentini nazorat qiladigan genni sichqon hujayrasiga kiritishdi. Sichqon hujayrasida ushbu ferment bo'lmagan natijada bir necha bo'g'in davomida sichqon hujayralarida timidinkinaza fermenti bo'lgan.

Ikkinchi usul, ya'ni virus infeksiyasi (transfeksiyasi) hayvonlar hujayrasiga tabiiy genetik informatsiya kiritish hisoblanadi. Bundan tashqari viruslar hujayra transformatsiyasida kerakli (foydali) genlarni kiritish uchun ham hizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda har xil retroviruslar (teskari transkripsiya qiluvchi RNK saqlovchi viruslar oilasi) sistemasi vektorlari yaratilgan bo'lib, ular qushlar va sutemizuvchilar organizmiga tashqaridan gen kiritish xususiyatiga ega.

Genlar organizmga kiritishda viruslardan tashqari mobil elementlar ham mavjud bo'lib bu 1983 yilda drozofila genomidan ajratilgan. Eng ko'p qo'llaniladigan usullardan biri genlarni zigotaning pronukleusiga in'ektsiya qilishdir. Qishloq xo'jalik hayvonlari zigotasida pronekleusni ajratish qiyin bo'lgani

uchun in'ektssiyani aniq qilishni qiyinlashtiradi. Shunga qaramay Xammer va boshqalar 1985 yilda birinchi bo'lib transgen cho'chqa oldilar. Lekin tajribalar mahsuli juda past edi. Masalan, bitta transgen qo'zi olish uchun 1032 zigotaga in'ektsiya qilish, 20 ta transgen cho'chqa bolasini olish uchun esa 20035 zigotga in'ektsiya qilishga to'g'ri keladi.

4. Genlarni hayvon hujayrasiga kiritish usullari. Zootinjenerlar uchun genlarni hayvon hujayrasiga kiritish va genomiga tartib bilan joylashtirish usullari muhim hisoblanadi. Hozirgi vaqtda shu sohada bir necha xil metodlar ishlatiladi. Jumladan virus bilan kiritish, ximiyaviy, fizikaviy yo'l bilan, hujayralarni qo'shish va yangi usul-retrovirusni ishlatish.

Birinchi usulda DNK saqlaydigan viruslar genlarni ko'chirib o'tkazishda vektor sifatida foydalaniladi. Lekin ko'pchilik hozirgacha o'rganilgan viruslar kiritilgan hujayrani yemirilishi va yo'q qilinishi (litik vektor) mumkin. Bundan tashqari ular transformatsiya qilishda retroviruslarga nisbatan kam samara beradi. Shuning uchun ham ularni hayvonlarda keng miqyosda ishlatish mumkin emas. Lekin bunday vektorlar vaksinalarni ishlab chiqarishda samara berishi mumkin.

Ikkinchi usul genlarni tartib bilan joylashtirishda keng qo'llaniladi va bunda

DNK fosfat kalsiy bilan qo'shib hujayraga kiritiladi. Bu usulning va boshqa ximik usullarning ijobiy tomoni shundaki ular nisbatan oddiy va alohida asbob-uskuna talab qilmaydi, hamda infeksiya chaqirmaydi. Shuning uchun ham bu usul mutloq havfli emas. Lekin bu usulning kamchiligi tashqaridan kiritilgan DNK ning juda kam o'zlashtirilishida.

Fizikaviy usul ikki asosiy klassda-mikroin'eksiya va elektroporatsiya yo'li bilan olib boriladi. Elektroporatsiya nisbatan yangi usul bo'lib, DNK molekulasini elektr toki yordamida hujayra membranasidan olib o'tishga yordam beradi. Lekin bu usul yo'li bilan genlarning genomga o'tkazilishi xususiyati noma'lum.

Mikroin'eksiya usuli-samarali hisoblanib, keng qo'llanildi. Gordonning aniqlashicha plazmidli DNK nasilga beriladi. Bunday hayvonlar, ya'ni o'zining genomida ekzogen geni bor organizmlar transgen hayvonlar deyiladi.

Qishloq xo'jaligi hayvonlarining ko'payishi va serpushtlik xususiyati aniq irsiy nazorat ostida amalga oshadi va bular garmonlar statusiga bog'liq. Hayvonlar ko'payishda ayrim garmonlarning ta'sir kuchi aniqlangan. Masalan, FSG (follikulalarning yetilishi nazorat qiladi) va LG (lyutinlashtiruvchi garmon). Gen injeneriyasi

oldida mana shu garmonlarni biotexnologik usul bilan ishlab chiqish va shu bilan ularning ko'payishiga ta'sir qilish mumkin.

Shu nuqtai nazardan, serpushtliligi yuqori bo'lgan hayvonlarning seleksiya qilish yo'li bilan ularning sonini oshirish mumkin. Masalan. Burula zotli qo'ylarda serpushtlik geni o'rganilib, uning tuxumdonga ta'siri aniqlangan. Shu zotni boshqa merinos qo'ylar bilan chatishtirish natijasida va ularni tanlash, saralash ishlari olib borilganda qo'ylarning serpushtliligini 40-60%ga oshirish mumkin. Lekin shu darajaga yetkazish uchun kamida 30 yil kerak bo'ladi. Serpushtlik xususiyati genlarning poligen ta'siriga bog'liq. Mana shu jihatlardan foydalanib, gen injenerlik usuli bilan burula-gen deb atalmish genni boshqa qo'ylar genomiga joylab qo'yish tufayli ularning pushtdorligini oshirish mumkin.

5. Transgen xayvonlar yaratish yo'nalishlari. Zamonaviy biotexnologiyaning dolzarb yo'nalishlaridan biri xo'jalik ahamiyati qimmatli bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lgan transgen xayvonlarni, tabiatda o'xshashi bo'lmagan organizmlarni yaratish bo'lib qoldi.

Xozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda transgen organizmlar olish texnologiyasiga qiziqish ortib bormoqda. Qishloq xo'jaligi uchun mahsuldor xayvonlar yaratishga katta mablag'lar ajratilmoqda.

Xozirgi kunda transgen xayvonlar yaratish bir necha yo'nalishda rivojlanib bormoqda:

-Tarkibida ba'zi komponentlarni yuqori miqdorda tutuvchi mahsulotlar beruvchi (Masalan, Buyukbritaniyada cheddar pishlog'i ishlab chiqarish uchun to'g'ri keladigan sut beruvchi sigirlar podasi mavjud) xayvonlarning yangi porodalarni yaratish.

-O'ziga xos bo'lmagan oqsillar sintez qilish xususiyatiga ega bo'lgan (masalan, insonlar insuliniga xos sintez qiluvchi cho'chqalar) yaratish

-Insonlar uchun transplantatsiya qilish uchun organlar beruvchi transgen xayvonlar yaratish.

Transgen xayvonlarni yaratish insoniyatning ko'pgina, oziq-ovqat mahsulotlari tanqisligi, dori preparatlarni ishlab chiqarish va ularni yetarli miqdorda olish kabi muammolarni xal qiliga yordam beradi.

6. Transgen xayvonlar olish texnologiyasi

Transgen xayvonlar –bu tajriba asosida olingan, organizmining harbir xujayrasida xromosomaga integratsiya bo'lgan va nasldan-naslga beriladigan qo'shimcha gen tutuvchi xayvonlardir.

“Transgenoz termini 1973 yilda genetik jixatdan uzoq bo'lgan turlarga mansub bo'lgan organizmlarning genlarini boshqa organizmga

ko'chirib o'tkazini belgilovchi sifatida taklif etilgan. Transgen xayvonlarni olish klonlangan genlarni (DNK) urug'langan tuxum xujayra (zigota) yoki embrional tana xujayralar yrdamda amalga oshiriladi. So'ngra retsiyent urg'ochi xayvonlarning reproduktiv organlariga xususiy yadrosi tana xujayralarining modifikatsiyalangan embrion xujayralari yadrosi bilan almashtirilgan modifikatsiyalangan zigotalar, tuxumxujayralar yoki embrional tana xujayralari begona DNKsini tutuvchi blastotsistalar (embrionlar) ko'chirib o'tkaziladi.

7. Transgen xayvonlar olish tarixi. Birinchi transgen xayvonlar 1974 yilda Kembrijda Rudolf Yanish tomonidan olingan bo'lib u sichqon embrioniga maymunning SV40 virusini in'ektsiya qilish natijasida oldgan. 1980 yilda amerika olimi Jorj Gordon (Gordon) yordamchilari bilan birgalikda zigota pronukleusi ((tuxum xujayradagi yadro)ga DNKni mikroin'ektsiya qilish orqali transgen xayvonlar olishni taklif etdi. Aynan mana shu usul transgen xayvonlar olishning keng tarqalishiga asos bo'ldi. Transgen xayvonlar Rossiyada 1982 yil paydo bo'lgan, AQShda 1985 yilda zigotaning pronukleusiga mikroin'ektsiya qilish orqali qishlo xo'jalik xayvonlari quyon, qo'y va cho'chqalar olingan.

AQShning Genzyme Transgenics korporatsiyasi sutida inson albtumini bo'lgan qoramol yaratish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Albumin terapeyada qondagi osmotik bosimni ushlab turish uchun foydalaniladi. Shuningdek Genzyme Transgenics insonlarning o'sish gormoni va β interferonni olishning usullari bo'yicha izlanishlar olib bormoqda. V Angliyada sutining tarkibida qonni ivish faktori tutuvchi transgen qo'ylar yaratilgan. Rossiyada esa samototropin genini tashuvchi cho'chqalar yaratilgan.

Xulosa: hayvon gen muhandisligi fan va texnologiyaning inqilobiy sohalaridan biri bo'lib, insoniyat oldida turgan qator muammolarni hal qilishda ulkan imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq, bu texnologiyani qo'llashda me'yorlarga rioya qilish va ekologik oqibatlarni chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, ilmiy yutuqlarni mas'uliyat bilan tatbiq etish zarur.

Adabiyot tahlili: Bruce Albertsning "Molecular Biology of the Cell" kitobi hayvon

hujayralaridagi genetik jarayonlarni tushunish uchun muhim manba hisoblanadi. Unda hujayra ichidagi genlarning ifodalanishi, DNK replikatsiyasi va transkripsiyasi haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

CRISPR-Cas9 texnologiyasi haqida, Nature va Science jurnallari gen tahrirlashning texnik imkoniyatlari va cheklovlarini ochib beradi. Ushbu texnologiya hayvon genomlarini tez va aniq o'zgartirish imkoniyatini beradi.

Ian Wilmut va uning jamoasi tomonidan yaratilgan klonlangan qo'y Dolly (1996-yil) ushbu texnologiyaning birinchi muvaffaqiyatli misollaridan biri.

Genetik jihatdan o'zgartirilgan sichqonlar va boshqa laboratoriya hayvonlari inson kasalliklarini o'rganishda keng qo'llaniladi. Buning samaradorligi haqida tadqiqotlar Cell va PLOS Biology kabi jurnallarda e'lon qilingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Artikova R.M., Murodova S.S. Qishloq xo'jalik biotexnologiyasi Toshkent "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2010
- 2.Antipova L.V., Glotova I.A., Jarinov A.I. Prikladnaya biotexnologiya Ucheb. posobiye dlya vuzov. Voronej: Voronej. gos. texnol. akad., 2000. -420 s.
- 3.Ashmarin I. Molekulyarnaya biologiya. Leningrad 1977. – 366 s.
- 4.Beker M.E., Liyepinush G.K., Raypulis Ye.P. Biotexnologiya. M.: Agropromizdat, 1990. – 284 s.

5. Biotexnologiya: Ucheb. posobiye dlya vuzov. V 8 kn./Pod. red. N.S.Egorova., V.D.Samuilova. M.: Vysshaya shkola, 1997. – 228 s.
 6. Volova G. Biotexnologiya. Izd-vo otdeleniya Rossiyskoy Akademii nauk. 1999. – 252 s.
 7. Yevtushenkov A.N Fomichev Yu.K. Vvedeniye v biotexnologiyu. Izd. BelGU, 2002. -104 s.
 8. Yefimova M.V. Vvedeniye v prikladnuyu biotexnologiyu. Izd.: Petropavlovsk-Kamchat-skiy. 2004 . -96 s.
 9. Kovaleva T. Biotexnologiya. Chast' 1. Fiziko-ximicheskiye svoystva fermentov. Voronej. 2001. – 78 s.
 10. Lavles A. Geneticheskiye efekty alkiliruyushix soyedineniy. M.: Nauka. 1970. -254 s.
 11. K. Robinson. Texnologiya geneticheskoy modifikatsii i pishchevyye produkty. ILSI Europe. 2001. – 55s.
 12. Sheveluxa V.S. va boshq. Sel'skokhozyaystvennaya biotexnologiya. M.1999
 13. Maniatis T., Fritch E., Sambrook D.J. Molekulyarnoye klonirovaniye Moskva. Mir. 1984. 4771
- Havolalar:
1. www.molbio.ru
 2. www.biotech.com
 3. www.ziyonet.uz